

MUNIS VA OGAGHIY IJODIDA LINGVOPOETIK UYG‘UNLIK

Q. Yusupova
UrDU doktoranti

Bugungi kunda tilshunoslikning muhokama maydoniga tortilayotgan muhim vazifalaridan biri har bir xalqning mumtoz namunalari bo‘lgan qadimgi yozma yodgorliklarni ilmiy asosda o‘rganish, asar tili lisoniy birliklarini til yaruslari bo‘yicha tahlil qilish, ularning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash va shu orqali tilda so‘zlar etimologiyasini tadqiq etish, eng asosiysi, tarixiy asarlar mazmuni va mohiyatini kelajak avlodlarga to‘g‘ri yetkazish hisoblanadi. Shu jumladan, tilshunosligimizda tarixiy asarlar tili ustida olib borilayotgan tadqiqotlar samarali va sermazmundir.

Mumtoz adabiyotimizdagi tarixiy asarlarning lingvopoetik xususiyatlari haqida so‘z ketar ekan, bevosita XIX asr boshlarida yozila boshlagan Munis qalamiga mansub “Firdavs-ul-iqbol” asari hamda XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan Ogahiy tarixiy asarlari, xususan “Riyoz-ud-davla”ni tadqiqot doirasiga tortdik.

“Firdavs-ul-iqbol” asari tuzilishi bo‘yicha sulolaviy tarixnavislikning yorqin namunasidir. Munis o‘zidan oldingi turkiy tarixnavislarning uslubidan farqli ravishda o‘z asarida jimjimoli ifodalar, nasrda ham musajja’dan serunum va o‘rinli foydalangan. Bu yerda uni fors yoki arab tarixnavislik uslublariga taqlid qilgan desa bo‘ladi. Lekin bu yerda ham u turkiy-o‘zbek tilining imkoniyatlarini yana bir marta ko‘rsatishga harakat qilgani ma’lum.¹

Ogahiyning tarixiy asarlari o‘zbek tarixiy va badiiy nasrining, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmida eski o‘zbek tilida bitilgan so‘nggi, o‘ziga xos noyob namunasi ekanligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan ushbu ikki asarda qo‘llanilgan lingvopoetik birliklarning umumiylik piravordida eski o‘zbek tilining turli sathlar doirasida bor imkoniyatlarini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Ogahiy ijodida ustoz-salaflar uslubidan ilhomlanish, an’anaviylikning o‘rnini, qisqacha qilib aytganda, uning tarixiy asarlari lingvoestetikasi manbalarini o‘rganishimiz mumkin.

Munisning “Firdavs-ul-iqbol” hamda Ogahiyning “Riyoz-ud-davla” asarlarining tuzilishi, yozilish uslubi, voqealar bayoni usuli, asardagi badiiy poetik vositalarning qo‘llanilishi qiyoslab o‘rganilganda, o‘zaro o‘xshashliklar va o‘ziga xosliklarni uchratish mumkin.

¹ Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi f.f.d. A.O‘rozboyev. –Urganch: Quvonchbek-Mashxura, 2020. –B. 11-bet.

Birinchiidan, har ikki asar muqaddimasi baroati istihlol san'atiga asoslangan, ya'ni asar boshida mualliflar kitobxonga asarning mazmun mohiyatiga ishora qilish bilan boshlagan. Asarlar tili murakkab, arabiy va forsiy o'zlashmalardan unumli foydalanilganligi ularning xos kishilar, ya'ni ziyolilar uchun mo'ljallab yozilganligini bildiradi. Ogahiy "Riyoz-ud-davla" asari ibtidosida Munisning "Firdavs-ul-iqbol" asari muqaddimasidagi kabi o'zining falsafiy qarashlariga ijtimoiy-siyosiy mazmun beradi va ushbu san'atdan mohirona foydalanadi.

Ikkinchiidan, ushbu asarlarda o'z davri adabiy-badiiy an'analari talabiga ko'ra, saj' san'atiga keng o'rin berilgan. Ayniqsa, bu asarlarning an'anaviy kirish qismida yaqqol ko'zga tashlanadi, tasavvur hosil bo'lishi uchun "Riyoz-ud-davla" muqaddimasidan bir parcha keltiramiz: "*Jahonbonlig' mahomining nigini **intizomi** va hukmronlig' nizomining sarrishtayi **ihimomi** ul podshohi adimu-l-ishtibohning **qabzayi iqtidor** va **sarpanjayi ixtiyor**ig'a mahkam-u musallamdurkim, sipehri nilgunning ayvoni **rif'atbuyoni** aning binoyi san'atidin **mutarrah** va rub'i maskunning fazoyi **vus'atnishoni** aning me'mori qudratidin **musattahdur**".¹*

Kuzatganingizdek, Ogahiy asarida qo'llanilgan saj' namunalari original va murakkab tuzilishga ega. Unda saj'ning bir necha turlari, jumladan saj'i mutavoziy (to'liq saj') qo'llanilgan. To'liq saj' – bir yoki bir necha gaplar tarkibidagi ayrim bo'laklar ham vaznda, ham harfi raviyda mos bo'ladi.² Ogahiy bu tur saj'lardan asarda qo'llanilish o'rniga ko'ra ikki xil - ichki va tashqi turidan ham unumli foydalangan. Yuqoridagi parchada saj'lanuvchi so'zlar: *intizom-ihimom, qabzayi iqtidor-sarpanjayi ixtiyor, rif'atbuyoni-vas'atnishoni, mutarrah-musattah*.

Endi saj'ning qo'llanilishini Munis asari muqaddimasida ko'rib o'tsak: *Oliymaqom sultonlarning **dabdabayi hashamati** va garduntovon xoqonlarning **kavkabayi davlati** ul podshohi alalitloqning qullug'i bilan intizom toparkim, olami nosut aning borgohi saltanati ollida bir qazoyi **muhaqqardur** va fazoyi malakut dargohi azamatidin bir sahni **muqassar***.

Keltirilgan parchada ham saj'ning mutavoziy turi qo'llanilgan bo'lib, saj'lanuvchi so'zlar ham vaznda, ham raviyda o'zaro bir-biriga mos keladi. Saj'lanuvchi so'zlar: *dabdabayi hashamati-kavkabayi davlati, muhaqqar-muqassar*.

Uchinchiidan, asarda ritmik-sintaktik parallelizmlarni vujudga keltiruvchi omillardan biri saj'dir. Ma'lumki, saj' ritmik funksiya ham bajaradi. Bu funktsiyaga ko'ra saj' qo'llanilgan har qanday nasriy gaplar bir necha ritmik bo'laklarga bo'linib ketadi.³

¹ رياض الدولة O'zR FA Sharqshunoslik instituti. 5364 / II. 246^a.

² Sarimsoqov B. Saj' va qofiya // O'zbek tili va adabiyoti. 1972. №1. 19-b.

³ Sarimsoqov B. Saj' va qofiya // O'zbek tili va adabiyoti. 1972. №1. 78-b.

Yuqorida keltirilgan har ikki misol ritmik-sintaktik parallelizmning yorqin namunasidir. Ritmik-sintaktik parallelizm da ikki yoki undan ortiq motiv teng va o'xshash sintaktik birliklar orqali ifodalanadi. Va bu tenglik chegarasi saj'lar yoki takrorlar orqali ajralib turadi, shu orqali ohangdoshlik hamda nisbiy hamvazlik yuzaga kelmoqda. Yuqorida keltirilgan parcha tahlili orqali fikrimizni dalillasak:

1. *Jahonbonlig' mahomining nigini intizomi* –Jahonni tutishdek muhim ishlarning intizom nigini;
2. *Hukmronlig' nizomining sarrishtayi ihtimomi* –Hukmronlik nizomining sa'y-harakatlari tizgini;

Birinchi ikki motiv va ritmik-sintaktik parallelizm

3. *Sipehri nilgunning ayvoni rif'atbuyoni*- Ko'm-ko'k osmonning yuksak ayvoni; aning binoyi san'atidin *mutarrah*-uning binokorlik san'ati bilan tarhi chizilmish
4. *Rub'i maskunning fazoyi vus'atnishoni*- butun yer yuzining keng fazosi; aning me'mori qudratidin *musattahdur*- uning me'morlik qudrati bilan tekislangan

Ikkinchi ikki motiv va ritmik-sintaktik parallelizm.

Ogahiy asaridagi ritmik-sintaktik parallelizm Munisning “Firdavsul-iqbol” asari ritmikasi, badiiy poetikasidan ilhomlanib yuzaga kelgani shubhasiz. Munis asaridagi ritmik-sintaktik parallelizm quyidagicha:

1. *Oliymaqom sultonlarning dabdabayi hashamati*-
2. *Garduntovon xoqonlarning kavkabayi davlati*
ul podshohi alalitloqning qullug'i bilan intizom toparkim,

Birinchi ikki motiv va ritmik-sintaktik parallelizm

3. *Olami nosut aning borgohi saltanati ollida bir qazoyi muhaqqardur*
4. *Fazoyi malakut dargohi azamatidin bir sahni muqassar.*

Ikkinchi ikki motiv va ritmik-sintaktik parallelizm.

Har ikki asarda ba'zan bir necha gaplar yoki bo'laklar bir xil ohangda o'qiladi va ohangdagi bunday bir xillik intonatsion parallelizmni ham yuzaga keltiradi.

To'rtinchidan, “Riyoz-ud-davla” asarida Ogahiy tarse' san'atidan unumli foydalangan: *Jahonbonlig' mahomining nigini intizomi- hukmronlig' nizomining sarishtayi ihtimomi, sipehri nilgunning ayvoni rif'atbuyoni- rub'i maskunning fazoyi vus'atnishoni, malo'u-l-a'lo soyirlar aning itoati futuhotidin bahramand-jarmi g'abro sokinlari aning itoati fuyuzotidin halovatpayvand, xurshidi duraxshon bir lam'ayi nopadiddir bayzoyi hikmatidin – muhiti bekaron bir qatrayi nomufiddur daryoyi qudratidin, vahdat-u kasrat azamati gulistonidin shabname – hayulo va suvrat hikmati ummonidin bir name.*

“Firdavsul-iqbol”ning Munis yozgan qismida ham, xususan muqaddimasida tarse'ga keng o'rin berilgan: *Oliymaqom sultonlarning dabdabayi hashamati-*

garduntovon xoqonlarning kavkabayi davlati, olami nosut-fazoyi malakut, borgohi saltanat-dargohi azamat, qazoyi muhaqqar-sahni muqassar, ma'murayi kavnu makon-olami arvoah va obdon, zobitayi qudratidin mazbut- robitayi hikmatidin marbut.

Beshinchidan, “Riyoz-ud-davla”da: *qabzayi iqtidor va sarpanjayi ixtiyor, mahobati tamom va salobati lokalom, torak muboraki, nuri komilu-s-sururi, huzuri maymanatvuturi, inoyoti makrumatoyoti, zamiri muniri, masrur-u sohilsurur, fuzaloyi zamon va shuroyi davron, faridi zamon va nodirayi davron;*

“Firdavs-ul-iqbol”da: *bidoyat va nihoyat, oftobi jahontob, atrof va aknof, masnu'ot va maxluqot, sinoni jonsitoni, miqrozi inqiroz, rahmat-marhamati, xil'ati davlat, harakot va suknot, davlat va hashamat, avsofi farovon va sitoyishi bepayon va boshqa ko'plab misollar orqali izdivoj san'atidan keng foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Lafziy go'zalliklar jumlasiga kiruvchi izdivoj san'ati asarda ikki yoki undan ortiq qofiyadosh so'zni yonma-yon yoki bir-biriga yaqin qilib keltirishdan iborat.¹ Yuqorida keltirilgan misollarni asar davomida ko'plab keltirish mumkin, izdivoj san'atidan bunday unumli foydalanish Ogahiy ijodiga hazrat Navoiy, Munis asarlari ta'sida kirib kelgan va narsiy asarda ham ohangdorlikni izdivoj san'ati orqali ta'minlash muallifdan yuksak mahoratni talab qiladi.*

Oltinchidan, Ogahiy “Riyoz-ud-davla”da: *xurshidi duraxshon-lam'ayi nopadid, bekaron-qatrayi nomufid, vahdat-kasrat, mamlakatdorlig'-xorlig', ojiznavoz-takaburgudoz, xarob-u munhadam - noyob-u munadam, gumroh-hodiy, illat-tabib va shu kabi bir qator misollarni o'zaro bir-biriga zidlab qiyoslash orqali ekspressiv ta'sirchanlikni ya'nada oshirgan hamda tazod san'atining go'zal namunalari yaratgan. Qiyoslanayotgan ikki motiv o'zaro bir-biriga zid qo'yish va asvarda bunday uslubdan keng foydalanish orqali emotsional ta'sirni kuchaytirishni “Firdavs-ul-iqbol”ning Munis yozgan qismida ham kuzatishimiz mumkin: *olami nosut-qazoyi muhaqqar, fazoyi malakut-sahni muqassar, hudusu qidam-gavhari nosufta, vujud-adam, ma'murayi kavnu makon-olami arvoah va obdon, bidoyat-nihoyat, bekaron-sohili zuhur, jaloliyat-mazillat, notiq-alkan va abkam, mabda-muntaxiy, biym-taxavvurparvar, xoriston-gulshan.**

Yettinchidan, *podshoh-hukmron-sulton-davlat-afsar, futuhot-fuyuzot, intizom-nizmo, qabza-sarpanja, sipehr-ayvon-nilgun-fazo-rub'i maskun, me'mor-bino, maloyik-xalifa, rishta-silk, tuhafot-tansuqot, tahiyyot-salovat, vofira-mutahosira, ravza-maqbara, taxt-toj, risolat-nubuvvat, mushrik-kuffor-butxona, sinon-muboriz-livo* kabi tanosiblar silsilasi “Riyozu-d-davla” da qo'llanilgan bo'lsa, Munis o'z asarida: *fukdon-adam, sipexr-shamsa-kavokibi savobit va sayyor-sahob; tig'-niyom-*

¹ Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarfalam, 2006. 44-b.

nusrat, torak-ilkili murassa'; ashg'olot-g'ubor; zamoir-qulub, farxundayot-xo 'jastasimot, surma-g'oz kabi yuzlab tanosibning go'zal namunalarini yaratgan.

Sakkizinchidan, "Riyoz-ud-davla"da: *intizom-nizom, qudrat-iqtidor; molik-mulk, hakim-hikmat, xalifa-xilofat, tamom-itmom, anvor-munavvar* kabi o'zakdosh birliklarni qo'llash orqali ishtiyoq san'ati yuzaga kelgan. "Firdavs-ul-iqbol"da quyidagicha: *robita-marbut, zobita-mazbut, zuhur-mazohir-zohir, qodir-qudrat, hakim-hikmat* kabilar ushbu san'atning go'zal namunalarini yaratgan.

Munisning "Firdavs-ul-iqbol" hamda Ogahiyning "Riyoz-ud-davla" asaridan olingan mikromatnlarning umumiy tarzdagi lingvopoetik talqini Ogahiy leksik resurslar imkoniyatidan yuqori darajada foydanganligi ko'rsatadi. Bu esa muarrixning badiiy mahorati yuksakligini, o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari asosida yaratilgan benazir uslubini namoyon qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi f.f.d. A.O'rozboyev. –Urganch: Quvonchbek-Mashxura, 2020. –B. 11 bet.
2. رياض الدولة O'ZR FA Sharqshunoslik instituti. 5364 / II. 246^a.
3. Sarimsoqov B. Saj' va qofiya // O'zbek tili va adabiyoti. 1972. №1. 19-b.
4. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarfalam, 2006. 44-b.
5. G'anixo'jayev F. Ogahiy asarlari tavsifi (katalog). – Toshkent, 1986.